Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
E'zozxon Qobilova	
Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi	
Ilmiy matnni o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
Komilova Lola Nasilloevna	
Dizatriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zokirova Sohila Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПП	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyevna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	
Malakali futbolchılarni tayyorlashning innovatsion pedagogik va texnologik uslublari.....	802
Maxmudov Mamat Raxmatovich	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi.....	807
Adolat Xolmatova Muxammadjonovna	
Oliy ta'limda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishda maxsus pedagogikaning o'rni	811
Alijonova Dilorom Azamjonovna	
Sportning kurash turi tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	815
Do'stov Dilmurod Karimovich	

O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	818
Egamberdiyev Umidebek Xo'jayevich	
The Effectiveness of Art Therapy in Working With Children Experiencing Emotional Stress	821
Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Normuratov Laziz Azizovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tovush talaffuzi buzilishining turlarini va darajasini aniqlash usullari	826
Otaboyeva Nodira Qodir qizi	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati	830
Qobilova Aziza Tursunovna	
Intellectual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash texnologiyalari	833
Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich	
Biologiya, kimyo va geografiya fanlarni o'qitishda iqtidorli o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish	837
Sultanova N. B., Toshpo'latova N. I., Azimov B. I.	
Методика развития навыков самостоятельного обучения учащихся с помощью онлайн-образовательных платформ	840
Суяров Хуршид Бахриддинович	
Oliy ta'limda sun'iy intellekti boshqarishda rivojlangan chet davlatlar tajribasidan foydalanish usullari	844
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
Variativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida dialogik nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari	852
Turapova Ra'no Barat qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga og'zaki hisoblashni o'rgatish	857
Jurayeva Muhayyo Nematillayevna	
Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	861
Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish	865
Turdiyev Umiddjon Kamoliddinovich	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	868
Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives)	873
Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruktsiya bilan uyg'unlashtirish	877
Yuldasheva Gulsanam Arken qizi	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
Бахриева Шахноза Давроновна	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
Равшанова Иноят Эркиновна	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
Тагаева Тамара Баходировна	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
D. S. Zokirova	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
Egamberdiyev Umidebek Xo'jayevich	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
Ortiqova Zulfiya Nurmuhamedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
Rustemov Muxamed Biysenbayevich	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
Salixova Muhayyo Shakirovna	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna	
Autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
U. M. Utbasarova	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
Алибекова Лайло Рахмановна	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
Raimova Nasiba Abdreimovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
Bahronova Maftuna Farhadovna	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li	



TRENING JARAYONIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Nodirova M. B.

Toshkent amaliy fanlar universiteti
Pedagogika fakulteti talabasi

Usmanova S. A.

Toshkent amaliy fanlar universiteti
Psixologiya fani o'qituvchisi

Vaxidova U. A.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
Moda va dizayn kafedrasida mudiri, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada trening jarayonida uchraydigan muammolar, ularning psixologik va pedagogik sabablari aniqlash, shuningdek, bu muammolarni samarali bartaraf etish yo'llari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Treningning muvaffaqiyati ishtirokchilarning motivatsiyasi, trenerning shaxsiy va kasbiy tayyorgarligi hamda guruhdagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan chambarchas bog'liqligi asoslab beriladi. Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida trening metodining o'rnini, uning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati haqida ham ilmiy fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: trening, kommunikatsiya, psixologik muhit, motivatsiya, trener mahorati, guruh dinamikasi.

Abstract: This article examines the problems that arise during the training process, identifies their psychological and pedagogical causes, and analyzes effective strategies for addressing them. Special emphasis is placed on participants' motivation, the trainer's professional competence, and the psychological climate within the group. The article also highlights the role of training in modern education and its developmental significance.

Key words: training, communication, motivation, psychological climate, trainer's competence, group dynamics.

Аннотация: В статье анализируются проблемы, возникающие в процессе проведения тренингов, их психологические и педагогические причины, а также эффективные пути их устранения. Особое внимание уделяется мотивации участников, профессиональной компетентности тренера и психологическому климату группы. В работе также рассматривается роль тренинга в современной системе образования и его развивающее значение.

Ключевые слова: тренинг, коммуникация, мотивация, психологическая среда, профессионализм тренера, групповая динамика.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning ijtimoiy faolligini oshirish va muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Shu jarayonda treninglar muhim o'rin tutadi. Trening – o'qitishning interaktiv shakli bo'lib, u faqat bilim berish emas, balki shaxsiy o'sishni, o'zini anglashni hamda ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashni ta'minlaydi. Trening ishtirokchilarga o'z fikrini erkin ifoda etish, jamoada ishlash, boshqalarni tinglash va hurmat qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, trening jarayonida ko'plab muammolar kuzatiladi. Ular metodik, psixologik, kommunikativ yoki tashkiliy sabablarga ega bo'lishi mumkin. Ushbu muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish trenening samaradorligini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy psixologik treninglar bo'yicha tadqiqotlar shaxslararo muloqot, ijtimoiy faoliyat va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan izlanishlar bilan boydir. V.M. Karimova treninglarni inson psixologik salohiyatini yuksaltiruvchi samarali vosita sifatida baholaydi va trening davomida yuzaga keladigan muammolar ko'pincha guruh dinamikasi va ishtirokchilar faolligi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. S. G'aybullayeva asarlarida trening mashg'ulotlarida motivatsiyaning pasayishi, psixologik to'siqlar va kommunikativ sustlik asosiy muammolar sifatida ko'rsatiladi. Ularning fikricha, ishtirokchilarning emotsional holatini boshqarish va guruhda ijobiy muhit yaratish muammolarni kamaytiruvchi hal qiluvchi omillardandir.



Ta'lim jarayonida trening texnologiyalarini qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham trening samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qiladi. D. Xolmurodova va B. Islomov trening jarayonida metodik rejalashtirishning to'g'ri tashkil etilishi, mashg'ulot strukturasi aniq belgilanishi va interaktiv usullardan foydalanish trening sifatini oshiruvchi asosiy shartlar ekanini qayd etadi. M. Qodirova o'z tadqiqotlarida interaktiv metodlarning treningdagi muloqot, fikrlash faolligi va jamoaviy ishlash ko'nikmalariga ijobiy ta'sirini asoslaydi. Unga ko'ra, trening jarayonida noto'g'ri tanlangan uslub va metodlar ishtirokchilarning sust qatnashuviga olib kelishi mumkin.

Xorijiy ilmiy manbalarda treningning psixologik asoslari keng tahlil qilingan. A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan "ijtimoiy o'rganish nazariyasi" treningda kuzatiladigan kuzatish, taqlid qilish va ijobiy rag'bat kabi psixologik jarayonlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. D. Kolbning tajribaga asoslangan o'qitish modeli esa trening jarayonidagi faol ishtirok, refleksiya va amaliyotning o'zaro uyg'unlashuvi orqali o'rganish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. L.A. Petrovskaya muloqot kompetensiyasini shakllantirishda treningning o'ni, ayniqsa aks aloqa (feedback) jarayonining muhimligini ilmiy asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi trening jarayonida uchraydigan muammolarni aniqlash, ularning kelib chiqish omillarini belgilash va samarali bartaraf etish yo'llarini asoslashga qaratildi. Ma'lumotlar asosan kuzatish, yarim strukturalangan suhbat va trening jarayonida olib borilgan bevosita ishtirokli monitoring orqali to'plandi. Kuza-tish davomida ishtirokchilarning faolligi, muloqot darajasi, psixologik muhit va guruh dinamikasi qayd etildi. Suhbatlar yordamida ishtirokchilar va trenerlarning fikrlari, qiyinchiliklari hamda ehtiyojlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar sifat tahlili asosida kodlandi, kategoriyalarga ajratildi va takrorlanuvchi muammolar aniqlab borildi. Yakuniy tahlil natijalari asosida trening samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'plab soha mualliflari ijtimoiy-psixologik treninglarning etakchi maqsadi sifatida shaxslararo munosabat-larda aloqa malakasini shakllantirish omili ekanligini ta'kidlaydilar. Shaxs qachonki jamiyatda, boshqa odamlar bilan muloqot va o'zaro munosabatlar jarayonida shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Insonning kommu-nikativ qobiliyatlari uning rivojlanishining shartidir va bu rivojlanish natijasidir. Keng ma'noda shaxsning kommu-nikativ malakasini oshirmay, ijtimoiy munosabatlarini o'zgartirmay turib, shuningdek, ijtimoiy dunyoga va o'ziga bo'lgan umumiy munosabatini qayta ko'rib chiqmasdan insonning shaxsiy fazilatlarini majmuasini shakllantirib bo'lmaydi. Ammo hozirgi vaqtda ijtimoiy-psixologik treninglarning faqat aloqa vositasi ekanligi bilan bog'lash to'g'ri kelmaydi.

Ijtimoiy-psixologik trening nafaqat shaxslararo munosabatlarni shakllantirish omili, balki shaxsning o'z-o'zini adekvat baholashi, har qanday vaziyatlarda o'zini nazoratga olish imkoniyatlarini yaratib berishi bilan boshqa amaliy mashg'ulotlardan quyidagi maqsadlar orqali farqlanadi. Jumladan:

- shaxsda muloqotchanlik ko'nikmalarini hosil qilish;
- hayotdagi qarama-qarshiliklarni to'g'ri tushuna olish va tahlil qilishga o'rgatish;
- shaxsning ichki holati (ruhiyatini) o'zgartirishga erishish;
- shaxsning kamoloti uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni hosil qilish;
- kutilmagan vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini shakllantirish kabi.

Treningning asosiy vazifalari:

- shaxsning ijtimoiy-psixologik bilimdonligini oshirish;
- muloqot faoliyatida namoyon bo'ladigan yaqqol bilimlar, malakalar, ko'nikmalar va odatlarni shakllantirish;
- samarali muloqotda namoyon bo'ladigan zarur sifatlar, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish, noadekvatlarni korreksiya qilish;
- o'zini-o'zi to'laroq anglash, bilim hamda o'zgalarga nisbatan to'g'ri munosabatlarni shakllantirish qobiliya-tini o'stirish;
- umuman shaxsning ijtimoiy munosabatlarini faoliyatga, undagi pedagogik va ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan moslashishni ta'minlash va muvofiqlashtirish kabi.


Trening jarayonida eng ko'p uchraydigan muammolardan biri – ishtirokchilarning sust faolligidir. Ayrim hollarda ishtirokchilar trening mavzusini yetarlicha tushunmaydi yoki uni shaxsiy ehtiyojlariga mos deb bilmaydi.



Natijada ular faol muloqotdan chetda qoladi. Bu holat guruh ichidagi kommunikatsiya sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatda trener treningni boshlashdan oldin ishtirokchilarga uning maqsadi, ahamiyati va foydasini aniq tushuntirib berishi zarur. Shuningdek, trening dasturi ishtirokchilar hayotiy tajribasiga yaqin mavzularda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Trening samaradorligiga ta'sir etuvchi yana bir muhim omil – psixologik muhitdir. Guruh ichida ijobiy, ishonchli, qo'llab-quvvatlovchi atmosfera bo'lmasa, ishtirokchilar o'zini erkin his eta olmaydi. Shu sababli trener trening boshida "tanishish mashqlari", "do'stona aylanma", "men haqimda uchta haqiqat" kabi mashqlarni o'tkazishi kerak. Bu mashqlar ishtirokchilar orasida ochiqlik va ishonchni shakllantiradi.

Treningdagi yana bir muammo – trenerning tayyorgarlik darajasi. Trener faqat mavzu bo'yicha bilimga ega bo'lishi yetarli emas; u psixologik jarayonlarni, ishtirokchilarning ruhiy holatini, guruh dinamikasini chuqur tushunishi kerak. Har bir ishtirokchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, ularni faollikka undash, ijobiy turtki berish – trener mahoratining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.



1-rasm: Trening tamoyillari

- Faollik tamoyili.** Bu tamoyil eksperimental psixologiya asosida quyidagi g'oyaga bo'ysunadi: inson eshitganlarining 10% ni, ko'rganlarining 50% ni, aytib berganlarining 70% ni va o'zi qilganlarining 90% ni o'zlashtiradi. Trening guruhi a'zolaridan ijtimoiy faollik talab etiladi, chunki guruh a'zolari vaziyatlarda o'zgalardagi mavjud bilim va malakalardan foydalanib, harakatlar hamda vaziyat talabiga ko'ra aniq xulq-atvor shakllarini namoyon qilishlariga to'g'ri keladi.
- Ijodiylik tamoyili.** Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundan iboratki, trening davomida ishtirokchilar psixologiyada aniq bo'lgan, kashf etilgan g'oyalar va qonuniyatlarni topadilar, kashf qiladilar, eng asosiysi esa o'zlarining shaxsiy resurslarini, imkoniyat va sifatlarini anglab yetadilar. Trening guruhi a'zolarida doimiy izlanuvchanlik, vaziyat va rollarni tahlil qilgan holda uning mohiyatini tushunish lozim bo'ladi, chunki trening tafakkur va qarashlarning egiluvchan hamda vaziyatlarga mos bo'lishini taqozo etadi.
- Xulq-atvor obyektivlashishi tamoyili.** Mashqlar davomida ishtirokchilar xulq-atvori impul'sivlikdan obyektivlik darajasiga o'tadi va trening davomida o'zgarishlar kiritish imkonini beradi. Xulq-atvor obyektivligining universal vositasi sifatida aks aloqa hisoblanadi. Guruhdagi aks aloqaning yuzaga kelishini ta'minlash trenerning mas'uliyatidir. Ijtimoiy-psixologik trening mashg'ulotlarida namoyon bo'ladigan xulq-atvor shakllarining obyektivlashuvi – guruh a'zolarining munosabati rolining talablaridan kelib chiqqan holda, har bir ishtirokchi ayni shu rolga mos harakatni real xulqda mustahkamlashi va boshqalar ta'sirida uni ongli qabul qilishi zarur.



4. **Sheriklik (subyekt-subyektlik) muloqoti tamoyili.** Sheriklik yoki subyekt-subyektlik muloqoti boshqalar manfaati, hissiyotlari, his-tuyg'ulari, qayg'ulari va insonning shaxsiy qadr-qimmatini e'tirof etilishiga asoslanadi. Har bir mashg'ulot va muloqot sheriklarining bir-birlarini maksimal darajada hurmat qilishlariga asoslanmog'i kerak. Natijada shaxs mashg'ulotlardan so'ng begona fikrlarni qadrlashga, ular bilan hisoblashishga va tinglashga mos tarzda o'z fikr-mulohazalarini bayon etishga o'rganadi. Ushbu tamoyilning qo'llanishi guruhda ishonch va ochiqlik iqlimini yaratadi.
5. **Psixologik trening tushunchasi va treningning o'ziga xos jihatlari.** Psixologik treningning tub ma'nosi – insoniy munosabatlarga o'rgatishdan iboratdir. Psixologiya sohasi keyingi yillarda ancha rivojlandi. Shuningdek, psixologiya sohasining alohida yo'nalishlari sifatida trening tarmog'i ham rivojlandi. Fan sifatida rivojlanayotgan psixologik trening va uni o'tkazish uslubiyoti mazmun jihatdan ta'lim va tarbiya sohasida treninglarning qanday tartibda tashkil etilishi va o'tkazilishi masalalarini yoritishga bag'ishlanadi.

Trening jarayonida kommunikativ to'siqlar ham tez-tez uchraydi. Ayrim ishtirokchilar o'z fikrini ochiq ayta olmaydi, boshqalar esa haddan tashqari faol bo'lib, suhbatni egallab oladi. Bunday vaziyatlarda trener muvozanatni saqlashi, barcha ishtirokchilarga so'z berishi, ularning fikrini qadrlash orqali teng muloqot muhitini yaratishi lozim.

Ba'zida treningning noto'g'ri rejalashtirilishi ham muammolarga olib keladi. Mashg'ulotlar juda uzun yoki qisqa bo'lishi, vaqt noto'g'ri taqsimlanishi natijasida ishtirokchilar charchaydi yoki kerakli natija olinmaydi. Shu bois trening tuzilmasi – kirish, asosiy faol bosqich va refleksiya qismi aniq rejalashtirilishi zarur.

Trening samaradorligini oshirish uchun trener doimo innovatsion metodlardan foydalanishi zarur. Masalan, "Aqliy hujum", "Rol o'ynash", "Debat", "Case-study", "Refleksiya doirasi" kabi usullar ishtirokchilarni faollashtiradi, ularni fikrlashga va jamoaviy yechim topishga o'rgatadi. Har bir metodning o'ziga xos maqsadi bor, shu sababli trener uni mavzu va guruh holatiga mos tanlashi kerak.

Shuningdek, trening yakunida refleksiya bosqichini o'tkazish nihoyatda muhimdir. Bu bosqichda ishtirokchilar o'z taassurotlari, his-tuyg'ulari va o'rgangan jihatlari haqida fikr bildiradi. Refleksiya orqali trener o'z faoliyatini tahlil qiladi, keyingi mashg'ulotlar uchun xulosalar chiqaradi.

Trening jarayonidagi muammolarni bartaraf etishning eng muhim yo'li – doimiy tahlil va o'z ustida ishlashdir. Trener har bir mashg'ulotdan so'ng ishtirokchilarning fikrini o'rganib, o'z metodikasini takomillashtirib borishi lozim. Shuningdek, ishtirokchilarning emotsional holatini nazorat qilish, ularni rag'batlantirish va samimiy muhit yaratish – muvaffaqiyat kalitidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Trening jarayoni – oddiy o'quv mashg'uloti emas, balki insonning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi murakkab psixologik jarayondir. Treningda uchraydigan muammolar tabiiy holat bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish trenerning mahorati, ishtirokchilarning faolligi hamda psixologik muhitning sog'lomligiga bog'liq. Samarali trening o'tkazish uchun trener yuqori darajadagi pedagogik va psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi, zamonaviy metodlardan foydalana olishi zarur. Shunda trening haqiqiy ta'sir kuchiga ega bo'ladi, ishtirokchilarda yangi ko'nikmalar, ijobiy fikrlash va o'ziga ishonch shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V.M. Trening psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Xolmurodova D., Islomov B. Pedagogik trening va interaktiv metodlar. – Toshkent, 2020.
3. G'aybullayeva S. Psixologik treninglar asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey, 1984.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
6. Petrovskaya L.A. Kompetentnost v obshchenii. – Moskva, 2007.
7. Qodirova M. Ta'limda interaktiv metodlar va trening texnologiyasi. – Toshkent, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.